

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xaydarova Mashxura, Valiyev Gulam

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI
TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH 4-8

TARIX FANLARI

Kulboev Nishonboy

RESEARCH CONDUCTED IN UVOLSOY 9-12

Sodiqov Erali

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID
MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH 13-16

IQTISODIYOT FANLARI

Shukurov Ikrom

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING
AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH 17-21

FALSAFA FANLARI

Yoqubova Nafisa

MILLATLARARO MADANIYAT INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI 22-25

FILOLOGIYA FANLARI

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В АМЕРИКЕ 26-31

Xoldorova Xulkaroy

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI 32-34

YURIDIK FANLARI

Sharipov Firdavs

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-
HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 35-39

Salomov Xumoyun

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING QONUNIYLIKNI
TA'MINLASHDAGI STRATEGIK VAZIFALARI 40-43

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH 44-46

YURIDIK FANLAR

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sharipov Firdavs Xolnazarovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-5732-0293>

Email: firdavs1983xxx@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyati tarixiy-huquqiy rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Tahlil jarayoni shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo'lib o'rganiladi. Shuningdek, maqolada parlament faoliyatida qabul qilingan qonun hujjatlarining huquqiy-siyosiy ahamiyati, ularning mamlakat demokratik taraqqiyotiga ta'siri va qonun ijodkorligi jarayonidagi zamonaviy tendensiyalar chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qonun, norma, huquq, qonun ijodkorligi, Qonunchilik palatasi, Konstitutsiya, parlament.

HISTORICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE LEGISLATIVE ACTIVITIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE OLIY MAJLIS: STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT

Sharipov Firdavs Kholnazarovich

Independent researcher at the Parliamentary

Research Institute under the Legislative Chamber

of Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Annotation This article provides a scientific analysis of the historical and legal development stages of the legislative activities of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. The analysis process is conditionally divided into three main stages. The article also provides an in-depth analysis of the legal and political significance of the legislative acts adopted during parliamentary activities, their impact on the country's democratic development, and modern trends in the legislative process.

Key words: law, norm, right, legislation, Legislative Chamber, Constitution, parliament.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i8/n08>

Qonun ijodkorligi haqida fikr yuritilar ekan, shuni alohida qayd kerakki, bu - doimiy ravishda rivojlanib boradigan, mamlakatda olib boriladigan islohotlarga uyg'un ravishda doimiy takomillashib boradigan ijodiy jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda parlamentning va Qonunchilik palatasining rivojlanish tarixiga nazar tashlasak [1] O'zbekistonning birinchi bir palatali parlamenti - Oliy Kengash mustaqillikni dastlabki yillarida faoliyat olib borgan bo'lsa, 1994-yil 25-dekabrda O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik asosida O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga birinchi saylovlar o'tkazilgan.

Davlat hokimiyatini tashkil etish va O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash masalalari yuzasidan 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumning qarori [2] Oliy Majlisni qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi hamda ikki palatadan – Qonunchilik palatasidan va Senatdan iborat bo'lgan, mamlakatning oliy davlat vakillik organi sifatida belgilashni nazarda tutgan. Shundan kelib chiqqan holda, 2005-yilda shakllantirilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatining tarixiy-huquqiy rivojlanish genezisini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich - 2005-2016-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda Oliy Majlis ikki palatali parlamentga aylantirildi. Ta'kidlash joiz, ikki palatali parlamentga o'tkazilishining asosiy maqsadi ham qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini oshirish bo'lgan.

Buning uchun esa, qonun ijodkorligi faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, 2006-yil 11-oktyabrdagi "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi [3], 2007-yil 11-apreldagi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi [4], 2013-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi [5] Qonunlar qabul qilingan.

Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2005-yil 28-iyulda 102-I-sonli Qarori [6] bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti" (2022-yil 9-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan), Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005-yil 8-noyabrdagi 152-I-sonli va Oliy Majlisi Senatining 2005-yil 3-dekabrdagi 112-I-sonli qarorlari [7] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining kelishuv komissiyasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi", Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonun loyihalarini va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim etilgan qonunlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari [8] quyi palataning qonun ijodkorligi faoliyatini yanada rivojlanishida muhim muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu davrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 450 taga yaqin, xususan, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari, bola huquqlari, odam savdosiga qarshi kurashish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, elektron hukumat, ekologik nazorat, ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan.

Ikkinchi bosqich - 2017-2023-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan keng ko'lamli demokratik islohotlar bilan bog'liq. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatida ham sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqich boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnoma instituti amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni [9], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-sonli Farmoni [10] hamda 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [11] qonun ijodkorligi bo'yicha ishlar samaradorligini tubdan o'zgartirdi.

Ushbu yillarda qonun ijodkorligi sezilarli darajada isloh etildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasini o'tkazish qonunda belgilab qo'yildi hamda uni tashkil etish tartibi ishlab chiqildi. Bu bilan qonun loyihalarini Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borishning huquqiy asosi yaratildi hamda bu orqali fuqarolarning taklif va fikr-mulohazalarini qonun loyihasida inobatga olish bilan yanada takomilga yetkazish amaliyoti tizimli yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2018-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytiga qonun loyihalari birinchi va ikkinchi o'qish oralig'ida qo'yilgan 20 dan ziyod qonun loyihasiga kelib tushgan takliflar mas'ul qo'mitalar tomonidan tahlil qilinib, ularning qator normalari o'zgartirilgan.

Qonun ijodkorligi faoliyatiga jamoatchilikni keng jalb qilinishi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligi oshishiga, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatiga va xalqchil bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilishga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, "Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida"gi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi, "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi, "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi, "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihalari deputatlar tomonidan tubdan qayta ishlanib, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar sifatida qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun ijodkorligi bo'yicha joriy etilgan amaliyotlar tahlili bu bosqida quyi palataning qonun ijodkorligi jadal rivojlanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, hisob palatasi, davlat-xususiy sheriklik, korrupsiyaga qarshi kurashish, kasaba uyushmalari, volontyorlik faoliyati, metsenatlik, ilm-fan va ilmiy faoliyat, turizm, maxsus iqtisodiy zonalar, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar, bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi kabi 500 ga yaqin qonunlar qabul qilingan.

Umuman, ushbu davrda jamiyatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qonun ijodkorligi jarayonining huquqiy asoslari izchil takomillashtirib borildi.

Uchinchi bosqich, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [12] qabul qilinishidan keyingi Qonunchilik palatasidagi qonun ijodkorligi davri, ya'ni 2023-yil 1-maydan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Qayd etish kerak, yangi tahrirdagi

Konstitutsiya qonun ijodkorligi faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Deputatlar amaldagi qonunchilikni Bosh Qomusimiz normalariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan yangi institutlar amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, qonunchilikka tashabbus ko'rsatish imkoniyatlarini yanada oshirish va ushbu jarayon ishtirokchilarining safini kengaytirish maqsadida qonunchilik takliflarini ilgari surish instituti joriy etildi. Unga muvofiq, saylov huquqiga ega bo'lgan yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Oliy Majlis Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Markaziy saylov komissiyasiga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni [13] qabul qilinib, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlar tartibga solinadigan bo'ldi.

Milliy qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablari asosida takomillashtirish va «O'zbekiston – 2030» strategiyasida [14] belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Qonun ijodkorligi faoliyati bo'yicha dastur qabul qilindi hamda uni 2024-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi [15].

Amaliyotda yuridik texnikaga nisbatan ma'lum bir talablar shakllandi. Keyingi vaqtlarda parlament qabul qilinayotgan qonunlarning huquqiy shakliga, ularning oddiyligi, jumalarning aniq va ixchamligiga katta e'tibor berilmoqda. Qonunlarning tuzilishi yetarlicha aniq va maromida rasmiylashtirilmoqda, normativ ko'rsatmalarni ifoda etish usuli soddalashib, yuridik atamalar tizimli xususiyat kasb etmoqda. Yangi sharoitlarga mos kelmaydigan qonunlarga takror va takror o'zgartish va qo'shimchalar kiritish o'rniga ularni yangi tahrirda qabul qilish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek "... jamiyat hayoti uchun dolzarb muammolar ko'tariladigan bo'lsa, ularni keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilishning muqobil usullarini amaliyotga kiritish zarur" [16].

Shu ma'noda, siyosiy partiyalar tomonidan ularning elektorati manfaatlariga taalluqli qonun loyihalari bo'yicha jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish amaliyoti yanada kengaytirildi. Birgina 2024-yilning 6 oyi davomida fraksiyalar tomonidan joylarda 60 dan ziyod qonun loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamalari tashkil qilingan.

Qonun ijodkorligi jarayonini raqamli transformatsiya qilish maqsadida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida (project.gov.uz) Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyihalarini ko'rib chiqishning barcha bosqichlarini raqamlashtirish tizimi (e-qonun.uz) ishlab chiqildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorli faoliyatini izchil takomillashtirish borasida islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilishi natijasida so'nggi yillarda qonunchilik va qonun ijodkorligi ham sifat, ham mazmunan salmoqli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Dolzarb vazifa sifatida endilikda, quyi palataning qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan shaffoflik, izchillik va jamoatchilik ishtirokini oshirishga qaratilgan keng qamrovli demokratik tamoyillar takomillashtirilmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti. <https://parliament.gov.uz/oz/static/parlament-tarixi>
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг “2002 йил 27 январда ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдуми якунлари тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг Ахборотномаси. 2002. 73 бет.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 406-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 153-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 16-сон, 215-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 й., 7-сон, 242-модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/>
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 2011 й., 1-сон, 15-модда.
9. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
10. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018 й., 06/18/5505/1639-сон.
11. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023-yil.
13. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон.
14. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.
15. Олий Мажлис палаталари Кенгашларининг 2024 йил 15 февралда қабул қилинган «Қонун ижодкорлиги фаолияти бўйича дастурни тасдиқлаш тўғрисида тўғрисида»ги 4036–IV/КҚ-683–IV-сонли Қўшма қарори. <https://lex.uz>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/3303>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.